

HUNARMANDCHILIKNING DASTLABKI MEXANIZMLARINI RIVOJLANTIRISH ORQALI BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIGA KASBIY TARBIYA BERISHNI TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOGIK – PSIXOLOGIK IMKONIYATLARI

Odinaboyev Fazliddin Bahriddin o'g'li

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti, tayanch doktoranti

Tel: +998 (99) 376-62-56 e-mail: odinaboyevf@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0007-0995-2189>

Ta'lim sohasidagi islohotlar natijasi sifatida shakllantiriladigan barkamol shaxsning mustaqil va ijodiy fikrlash sifatlarini tarbiyalash umumiy o'rta ta'lim maktablarining muhim vazifalaridan hisoblanadi¹. Bu borada o'quvchilarning to'g'arak ishlarini samarali tashkil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Respublikamizda qabul qilingan "Ta'lim to'g'arisida"gi qonun maqsadi ham ta'lim tizimini jahon talablari darajasida isloh qilishdan iborat bo'lib, bunda amalga oshirilishi lozim bo'lgan asosiy yo'nalishlaridan biri o'quvchilar mehnat tayyorgarligini takomillashtirishdan iborat.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida tashkil etiladigan texnologiya ta'limi mashg'ulotlari ushbu turkum ta'limni amalga oshirishda, o'quvchilarning umummehnat, mehnat, maxsus bilim, ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishda yetakchi o'rin egallaydi². Texnologiya ta'limi mazmuni, mohiyati va vazifalariga ko'ra barcha ilmiy, tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy bilimlarni umumlashtirib, uyg'unlashtirib, mujassamlashgan holda amaliyotga tatbiq etishni ko'zda tutadi.

Biz tadqiqotimizni olib borish jarayonida avvalo, umumiy o'rta ta'lim maktablarida texnologiya fanining maqsad va vazifalarini belgilab olishni nazarda tutdik:

Boshlang'ich ta'lim (I-IV sinflar) o'quvchilarni mehnat va hunarmandchilik dunyosi, o'simliklarni parvarish qilish, turli materiallar bilan tanishtirish, oddiy ishlov berish, oddiy mehnat va hunarmandchilik asboblari va mehnat, ish-harakat usullari to'g'arisida sodda tasavvurlar hosil qilishni ko'zda tutadi³. Bu davrda o'quvchilar texnologiya ta'limidan o'zlashtirgan bilimlar ko'lamini o'zlarining

1 Yo'ldosheva D. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" talablari asosida ta'lim maqsadini belgilashning didaktik asoslari: Pedagogika fanlari nomzodi... diss. –T., 2007. –124 b.

³ Казакевич В.М. Теоретико-методические основы информационно-технологического моделирования обучения труду: Автореф. дис... д-ра пед. наук / В.М. Казакевич. - М., 1997. - 43 с.

hayotiy tajribalarida va oiladagi mehnat jarayonida mustahkamlaydilar va kengaytirib boradilar.

Bu davrda o'quvchilarda xalq hunarmandchiligining asosiy sohalari bo'yicha maxsus mashg'ulotlarni o'qitishni tashkil etib, turli xil kasbiy bilimlar berish, amaliy ko'nikma va malakalarni hosil qilishni maqsad qilib qo'yadi. Ushbu mashg'ulotlarda o'quvchilar kasbiy mahoratlarini takomillashtira borib, tanlagan kasblari bo'yicha tegishli hujjatlarni olib, bevosita unumli mehnat jarayonida qatnashish imkoniyatiga va huquqiga ega bo'ladilar.

Texnologiya ta'limining yuqorida ko'rsatilgan maqsadiga erishishi uchun quyidagi vazifalarni hal etishni taqozo etadi:

- turli sohalardagi ishlab chiqarish mazmuniga ega vazifalarni yechish, tajribalar o'tkazish, o'lchov-tekshiruv asboblardan, ma'lumotlardan foydalana olish, mehnat operatsiyalarini bajarish, olingan natijalarni talab etilgani bilan taqqoslash yo'li bilan xulosa chiqarishga o'rgatish;

- o'quvchilarda bilim va mehnatga muhabbat, mehnat ahliga hurmat hissini singdirish, ularni jamoatchilik, Vatanga sadoqat, do'stlik, o'zaro hurmat ruhida tarbiyalash;

- o'quvchilarni bozor iqtisodiyoti qonuniyatlari talablari asosida sifatli, xaridorgir iste'mol mollari, mehnat mahsulotlari yetishtirishga odatlantirish, o'zlari yetishtirgan mahsulotlarni o'zlari iste'molchiga yetkazishlariga o'rgatish, ish boshqaruvchilik (menejerlik), homiylik, ishbilarmonlik sifatlarini singdirib borish va rivojlantirish.

Texnologiya ta'limida xalq hunarmandchiligini o'rganish jarayonida o'quvchilar, xalqimiz ruhiyatini yashash tarzini, an'alarini tiklash va rivojlantirish maqsadida xalq hunarmandchiligining kiritilishi milliy qadriyatlar, tarixiy yodgorliklar, xalq ustalarining ko'p qirrali boy merosini o'rganish, o'zlashtirish va amaliy faoliyatlarga qo'llash vazifasini hal etadilar.

Texnologiya fanining amaliy va ishlab chiqarish mazmunidagi an'anaviy sinfdars mashg'ulotlariga nisbatan ustoz-shogird tizimi tarbiyaviy mahsuldorligi, samaraliligi, bo'lg'usi hunarmandning shaxsiy xislatlarining shakllanishiga, oilalarining moddiy ta'minlanishiga hamda tarixiy qadriyatimizning yanada boyishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ustoz-shogird tizimi mashg'ulotlarini tashkil etishni oliy o'quv yurtlaridagi musiqa ta'limida o'quvchilar bilan o'qituvchilarning yakka tartibdagi mashg'ulotlar o'tkazishi bilan taqqoslash mumkin⁴.

O'qituvchi mashg'ulotlarni o'quvchilarning tashabbuskorligini va mustaqilligini tarbiyalaydigan tarzda olib borilishi kerak. Bu xislatlar o'quv mashg'ulotlaridan ko'zda tutilgan maqsad va vazifalarning oddiy bayon qilib berilishi, o'quv materialining ongli o'zlashtirilishi, nazariy va ishlab chiqarish

ta'limining o'quv bog'lanishida olib borilishi natijasida vujudga keladi⁵. Mazkur tamoyillar mehnat va hunar ta'limining dasturiga ko'ra o'rganilayotgan materiallarni o'quvchilar ongli ravishda ijodiy o'zlashtiriladigan qilib tashkil etilishini ko'zda tutadi. Texnologiya ta'limining bunday bo'lishiga o'quvchilar dars vaqtida yuksak darajada faollik ko'rsatganlaridagina erishish mumkin.

Texnologiya darslarida o'quvchilarning yuksak faolligiga har bir mashg'ulotning maqsad va vazifalarini, uning mazmunini aniq bayon etish, o'quvchilarga ijodiy tarzdagi mehnat topshiriqlarini berish, ta'limning eng samarali metodlaridan foydalanish natijasida erishish mumkin. Chunonchi, texnologiya darslarida zamonaviy texnika modelini ishlatish jarayonida, o'quvchilarga modelning alohida uzellar va detallarini konstruksiyalash hamda tayyorlash modellar bilan uzellar o'rtasida kinematik aloqani ta'minlash va hokazolar yuzasidan ijodiy tarzdagi topshiriqlar beriladi. Bunday topshiriqlar o'quvchilarda texnologiya darsiga qiziqishi va o'z maqsadiga erishish yo'lida uchraydigan qiyinchiliklarni bartaraf etishda faollik ko'rsatish istagini uyg'otadi.

Shunday qilib, texnologiya va hunar ta'limida onglilik va faollik tamoyili o'quvchilarga mustaqil ijodiy fikrlashni atroflicha singdirishni taqozo qiladi.

Texnologiya fani mashg'ulotlari o'zining qator xususiyatlari bilan boshqa fanlardan ajralib turadi.

1. Texnologiya fanida o'rganiladigan bilimlar mazmuni bir qancha Umumiy o'rta ta'lim fanlari (tabiat, iqtisodiyot, tarbiya, fizika, matematika, geometriya, jug'rofiya (geografiya), chizmachilik, kimyo, zoologiya, biologiya, anatomiya, botanika, tarix (hunarmandchilik tarixi), rasm (tasviriy san'at) va boshqalar) mazmunida yoritilgan bilimlar, g'oyalar, nazariyalar va tamoyillarga tayanadi. Shu sababli texnologiya fani mashg'ulotlari mavzulari ketma-ketligi yuqoridagi fanlarni o'rganish ketma-ketligiga mos holda uyg'unlashtirilmog'i lozim.

2. Texnologiya fani mashg'ulotlari umumiy o'rta ta'lim fanlaridan o'zlashtirilgan bilimlarni va o'quvchilarning hayotiy kuzatishlarini amaliyotda, mehnat jarayonida sinab ko'rish uchun o'ziga xos amaliy laboratoriya vazifasini o'tash uchun xizmat qiladi. Bu sohadagi mukammallikni ta'minlash uchun ham mashg'ulotlar ketma-ketligini tanlashda yuqoridagi fanlarning ma'lum bosqichlarini o'rganilgandan keyingina texnologiya fani mashg'ulotlarini tanlash imkoniyati hisobga olinmog'i lozim.

3. Texnologiya fani bir qancha umumiy o'rta ta'lim fanlariga amaliy laboratoriya, sinov maydonchasi sifatida xizmat qilishdan tashqari uning o'zi ham mujassamlashgan fan hisoblanadi hamda qator mustaqil fanlarni qamrab oladi. Texnologiya fani bevosita qamrab oladigan, tayanadigan, ba'zi qismlarni umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'rganiladigan fanlar jumlasiga quyidagilarni keltirish

mumkin: materialshunoslik, ro'zg'orshunoslik, agronomiya asoslari, tuproqshunoslik, mashinashunoslik, texnika va texnologiya asoslari, xalq hunarmandchiligi (naqqoshlik, ganchkorlik, o'ymakorlik, zargarlik va boshqalar), chorvachilik, mexanizatsiya, ishlab chiqarish asoslari, qishloq xo'jaligi, kasb tanlash va boshqalar.

4. Texnologiya fanining amaliyligi va mujassamlashgan o'quv fani ekanligidan uning alohida moddiy, xom ashyo, jihozlar ta'minotiga muhtojligi, o'ziga xosligi kelib chiqadi. Ushbu ta'limning to'laqonli yo'lga qo'yilishi uchun turli asbob uskunalari, jihozlar, qurilma va moslamalar, maxsus binolar, trenajyorlar, tajriba - sinov va o'quv mashg'ulot maydonlari, materiallar (metallar, metallmaslar, gazlamalar, plastmassalar va hokozo) zarurdir.

5. Ushbu ta'lim sohasi alohida o'quv, didaktik, metodik ta'minotiga egadir: plakatlar, chizmalar chizish, o'lchash, rejalash va moslama asboblari, operatsion, yo'l-yo'riqli, xavfsizlik yo'riqnomalari, xaritalar, pasportlar va qurilmalarning guvohnomalari, tarqatma va ko'rgazmali didaktik vositalar, shablonlar, multimedia vositalari, o'quv filmlari va boshqalar.

6. Texnologiya fanining ko'p tarmoqlilik va keng ko'lamdalliligi tufayli turli sohalar bo'yicha kasbiy pedagogik tayyorlangan mutaxassislariga ehtiyoj mavjudligi.

7. Texnologiya fani mashg'ulotlari qo'yidagi tiplarga bo'linadi: a) nazariy bilimlarni o'zlashtirish; b) amaliy ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish; v) ishlab chiqarish mashg'ulotlari. Ushbu ta'limda keyingi ikki tip mashg'ulotlarining tashkil etilishi, yo'lga qo'yilishi, ta'minlanishi, butun ta'lim mazmunining o'zlashtirilish sifatini belgilaydi.

Qator yillardan buyon olib borgan kuzatishlarimiz natijasida yuqorida ko'rsatib o'tilgan texnologiya fanining asosiy xususiyatlariga qo'shimcha ravishda shunday fikr aytishimiz mumkinki, ushbu sohaning har bir bosqichini, mashg'ulotini, mavzusini, mavzu qismlarini o'tishda ham o'ziga xoslik sezilib turishini ta'kidlashimiz o'rinlidir.

Xalq hunarmandchiligi asoslari texnologiya ta'limining etnik, milliy, tarixiy, ma'naviy, mahalliy, jo'g'rofiy asoslarini ifodalaydi va 150 xildan ziyod turga ega: ganch o'ymakorligi, naqqoshlik; yog'och, tosh va suyak o'ymakorligi, kandakorlik, temirchilik, misgarlik, kulolchilik, sandiqsozlik, beshiksozlik, pichoqchilik, zargarlik, xalchilik, gilamchilik, chopon tikish, kigiz bosish, do'ppichilik, mo'jaz rang-tasvir, sharq miniatyurasi, rextagarlik, zardo'zlik, patdo'zlik, kashtachilik; milliy musiqa asboblari tayyorlash va ta'mirlash, me'morchilik, savat to'qish, bo'yachilik, novvoychilik, o'tov tayyorlash, oshpazlik, milliy o'yinchoqlar tayyorlash, egarchilik, ot-ulov anjomlari tayyorlash

(anjomsozlik), kosibchilik, imoratsozlik (binokorlik) va boshqa asosiy yo'nalishlarga ega.

Xalq hunarmandchiligi bo'yicha o'tkazilayotgan mehnat amaliyotida o'quvchilar quyidagi texnologik yumushlar (operatsiya)ni bajaradilar:

1. Turli xil materiallarni ishlov berishga tayyorlash – yog'och materiallarni zaruriy o'lchamlarda qirqish, tozalash, pardoqlash, ko'zlarni yo'nish, materiallarni tekislash, gilamchilik uchun jun va paxtalardan iplar, arqonlar tayyorlash;

2. Zaruriy jihozlarni tayyorlab olish, masalan, gilamchilikda to'quvchilar ish o'rini, qilich, o'rmak, ayri, urchuq, qaychi va boshqalar; ganchkorlikda xovonchalar, andovalar, skalpel, pichoq, kosacha, suv va boshqalar;

3. Rejalash yoki belgilash – yog'och o'ymakorligida zaruriy o'lcham va shakllarni belgilab olish, shakllarni chizib olish, shaklli buyum qismlarini tayyorlashda (masalan, xontaxta, chorpoqa, kursilar tayyorlashda shaklli oyoqchalar, ustunlar, ustki taxtalar o'lchamini belgilab olishda);

4. Turli xil kesib ishlash operatsiyalarini bajarish – yog'och o'ymakorligida yog'ochlarni o'yish, metall o'ymakorligida metall plastinkalarni, zargarlikda sim va rangli metallarni, do'ppichilik, choponlar va boshqa xil milliy kiyimlarni tikishda gazlamalarni, ipakchilikda iplarni, tunukasozlikda metall plastinkalarni va h.k.;

5. Biriktirish – egar-jabduqlar tayyorlashda turli xil qismlarni, imoratsozlikda turli xil to'sinlarni, yog'och qismlarni sandiqsozlikda yog'och metall qismlarni, pichoqchilikda pichoq asosini va dastalarini va h.k.;

6. Pardoqlash – xalq hunarmandchiligida buyumlarni tayyorlashda yakuniy operatsiyalardan hisoblanib, bo'yash, jilvirlash, tikish, o'lchash, silliqlash kabilar yumushlarni qamrab oladi.

Texnologiya fani va xalq hunarmandchiligi sohalari bo'yicha tashkil etiladigan o'quv-tarbiyaviy tadbirlarning quyidagi qator didaktik afzalliklari mavjud:

a) shaklan va mazmunan xilma-xil faoliyat turlarini qamrab oladi;

b) o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro muloqotlarida deyarli to'liq mustaqilliklarini ta'minlaydi;

v) vaqt taqsimlanishida o'quv-dars tizimi kabi ma'lum majburiy qolip asosida emas, o'quvchilar bilimlarni o'zlashtirishlari, ko'nikmalarni shakllantirishlari va malakalarni rivojlantirilishiga qarab ixtiyoriy belgilanishini ta'minlaydi;

g) o'quv reja va dasturida ko'rsatilgan ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchilik maqsadlarining nisbatan to'liq, atroflicha amalga oshirilishiga erishiladi;

d) o'quvchilar o'zlarining ruhiy, aqliy, jismoniy imkoniyatlarini to'liq ishga sola oladilar, o'qituvchi esa yakka hukmronlikdan maslahatchilik vazifasiga o'tadi;

e) o'quvchilar, o'z mehnatlari natijasini o'zlari ko'radilar, kelgusida egallamoqchi bo'lgan kasb-hunarlarini mashaqqati, oson, qiyinchiliklarini, qulayliklarini, bevosita ishlab chiqarish sharoitida sinab ko'radilar;

f) xalq hunarmandchiligi bo'yicha tashkil etiladigan tadbirlarning xom ashyo, jihozlar bilan ta'minlanishida mahalliy, hududiy, mintaqaviy imkoniyatlar juda muhimdir.

Olib borilgan tadqiqotimiz davomida shuni aniqlandiki, boshlang'ich sinf o'quvchilarida milliy hunarmandchilikning dastlabki mexanizmlari orqali kasbiy tarbiya berish uchun avvalo o'qituvchining o'zida kasbiy tarbiyalanganlik yoxud kasbiy yetukli bo'lishi lozim. Har bir kasbiy sifat va yetukli o'qituvchining shaxsida shakllanganligi uning o'zuvchilariga shaxsiga ham shakllantirishida muhim natijalarni belgilab beradi.

O'qituvchi o'quvchilarimizga zamonaviy bilim berishi kerak, deb o'ylaymiz. Shu bilan birga, "zamonaviy bilim berish uchun avvalo, murabbiyning o'zida ana shunday bilimga ega bo'lishi kerak"⁶ deb ta'kidlanadi. Kasbiy kompetentli mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishi emas, balki har bir mustaqil yo'nalishi bo'yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o'zlashtirishini nazarda tutadi. Shuningdek, kompetensiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishi, yangi axborotlarni o'rganishi, muhit ijtimoiy talablarni angelay olishni, yangi ma'lumotlarni izlab topishi, ularni qayta ishlash va o'z faoliyatida qo'llay bilishni taqozo etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Igamov S.S. Umumta'lim maktablarining texnologiya darslari jarayonida xalq hunarmandchiligini o'rganishdagi ayrim muammolar va yechimlar //Xalq ta'limi jurnali – T:2021, №6. 73-75 b.
2. Karimov I.A. "Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori". T., 1998 y.
3. Tolipov O.Q., Sharipov Sh.S., Egamov X., Qo'ysinov O.A. Mehnat va kasb ta'limida uzviylikni ta'minlash muammolari // Uzluksiz ta'lim jurnali. – T: 2001.– № 2. –B. 101-111.
4. Yo'ldosheva D. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" talablari asosida ta'lim maqsadini belgilashning didaktik asoslari: Pedagogika fanlari nomzodi... diss. –T., 2007. –124 b.
5. Казакевич В.М. Теоретико-методические основы информационно-технологического моделирования обучения труду: Автореф. дис... д-ра пед. наук / В.М. Казакевич. - М., 1997. - 43 с.

⁶ Karimov I.A. "Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori". T., 1998 y.

6. Уразова М.Б. Теория и практика системы подготовки будущего педагога к проективной деятельности (на примере направления профессионального образования). – Т: Камалак, 2012. – 142 с.
7. Eshmurodov, O. (2024). ТАЪЛИМ ТАШКИЛОТЛАРИДА ПСИХОЛОГИК ХИЗМАТНИНГ ЙЎНАЛИШЛАРИ ВА ДОЛЗАРБЛИГИ. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 148-151. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9838>
8. Eshmurodov, O., & O'roqova, L. (2024). МАКТАБЛАРДА ПСИХОЛОГИК ХИЗМАТНИ RIVOJLANTIRISH MASALALARI. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 152-155. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9839>
9. Eshmurodov, O., & Fazliddinova, U. (2024). KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILARNI O'QISHGA O'RGATISHDA ПСИХОЛОГИК ХИЗМАТНИНГ O'RNI. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 169-173. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9840>
10. Eshmurodov, O. (2023). ҚИЗЛАРНИ ОИЛАВИЙ ҲАЁТГА ТАЙЁРЛАШНИНГ ИЖТИМОЙ ПСИХОЛОГИК ЖИХАТЛАРИ. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, (1).
11. Eshmurodov, O. (2022). ЎЗБЕК ОИЛАСИ МУСТАҲКАМЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШДА МИЛЛИЙ ҚАДРИЯТЛАРНИНГ ЎРНИ. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 2(6).
12. Eshmurodov, O. (2022). ҚАЙНОНА ВА КЕЛИН ЎРТАСИДАГИ МУНОСАБАТЛАРНИНГ БОЛАЛАР ТАРБИЯСИГА ТАЪСИРИ. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 2(6).
13. Eshmurodov, O. (2023). ОИЛАВИЙ МУНОСАБАТЛАР ВАРҚАРОРЛАШШУВИДА МИЛЛИЙ ҚАДРИЯТЛАРНИНГ АНАМИЯТИ. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 3(1).
14. Eshmurodov, O., & Eshboyeva, B. (2023). O 'SMIRLIK DAVRIDA JINSIY STEROTIPLARNING YOSH XUSUSIYATLARI. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 3(2).
15. Eshmurodov, O. (2024). МАКТАБЛАРДА ПСИХОЛОГИК ХИЗМАТНИ RIVOJLANTIRISH MASALALARI. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 152-155.
16. Eshmurodov, O., & Fazliddinova, U. (2024). KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILARNI O'QISHGA O'RGATISHDA ПСИХОЛОГИК ХИЗМАТНИНГ O'RNI. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 169-173.